O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot
instituti rektori
_________ O.SH.Bazarov
2024 yil “___” _________

Ro’yxatga olindi № 05/02/617
2024 yil “27” iyun

# “KORXONANI TASHKIL ETISH VA TADBIRKORLIK”

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 300000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| Ta’lim sohasi: | 310000 - Ijtimoiy va xulq-atvorga moyil fanlar |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) |

Qarshi – 2024

| Fan/modul kodi | | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|---|
| ESTEE6 | | 2024-2025 | 4 | 6 | |
| Fan/modul turi | | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Tanlov fani | | O'zbek | | 5 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Korxonani tashkil etish va tadbirkorlik | | 76 | 104 | 180 |

2.

## I. FANNING MAZMUNI

**Fanni o'qitishdan maqsad** – bo'lajak bakalavr iqtisodchilarga korxonalarini har tomonlama o'rganib, uning faoliyatini tahlil qilish va xolisona baho berish, korxonalarni yangi shakllarini tuzish va ular faoliyatini takomillashtirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilashning ichki imkoniyatlarini aniqlash yo'llarini o'rganishdan iborat. Shuningdek, korxonalarda yangicha iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish mexanizmini ochib berish asosida talabalarda xo'jalik yuritish va boshqarish ko'nikmalarini o'rgatish bo'yicha yo'nalish ixtisosligiga mos bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** - qo'yilgan maqsadddan kelib chiqib fan oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:
- bozor iqtisodiyoti talablari asosida ishlab chiqarishni boshqarish mohiyatini ochib berish;
- talabalarda ilmiy-tadqiqot ishlarining boshlang'ich ko'nikmalarini hosil qilish;
- ularni har bir tadbirning iqtisodiy va texnologik jihatdan amalga oshirish uchun zarur
bo'lgan bilimlar bilan qurollantirish;
- iqtisodiy qonunlarning korxonada amal qilish xususiyatlarini o'rgatishdan iborat.

## II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. "Korxonani tashkil etish va tadbirkorlik" kursining mazmuni va vazifalari**

Kursda o'rganiladigan muammolar mohiyati. Ishlab chiqarish omillari - korxona iqtisodiyotining tarkibiy qismlari. Iqtisodiy tizim turlari. An'anaviy, buyruqbozlik, bozor, aralash iqtisodiyotning xususiyatlari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning O'zbekiston milliy modeli, uning tamoyillari, mohiyati va o'ziga xosligi. "Korxonani tashkil etish va tadbirkorlik" kursining mazmuni, vazifalari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

**2-mavzu. Korxona – mustaqil xo'jalik yurituvchi bozor subekti**

Milliy iqtisodiyot rivojlanishida va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan chiqishda korxonalarning o'rni va roli. Korxonaning belgilari, funksiyalari va vazifalari. Korxonalarni tasniflash. Korxona tuzilmasi va uni belgilovchi omillar.

**3-mavzu. Korxonani tashkil qilish va uning faoliyatini to'xtatish**

Korxonlarning vazifalari, huquqlari, tashkiliy asoslari va bozor munosabatlariga o'tishda tutgan roli. Korxonani tashkil qilish tamoyillari. Ta'sis hujjatlari. Mulk shakllari. Korxonani tashkil qilish va ro'yxatdan o'tish tartibi, mulkning shakllanish manbalari. Korxonalarning xo'jalik mexanizmi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida korxona turlari (xo'jalik, o'rtoqlik, AJ, birlashmalar, xolding kompaniyalar, kichik, o'rta, qo'shma va hokazo). Korxonalarning davlat tomonidan ro'yxatga olinishi va unga inqiroz sharoitida yengilliklar kiritilishi. Korxonalarni tugatish va qayta tashkil qilish.

**4-mavzu. Korxonani boshqarish**

Boshqaruv zamonaviy korxonalar faoliyatida obyektiv zaruriyat sifatida. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonani boshqarishning tamoyillari maqsad va vazifalari. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari va funksiyalari. Korxonani boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari. Korxonani boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

**5-mavzu. Korxona faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida rejalashtirish va bashorat qilishning iqtisodiy tabiati va obyektiv zaruriyati. Korxonada rejalashtirishning uslubiy asoslari, tamoyillari va vazifalari. Korxonalarda rejalashtirish va bashorat qilish. Rejalashtirish texnologiyasi va korxona rejalari tuzilmasi. Biznes-reja, uning mazmuni va ishlab chiqish tartibi.

**6-mavzu. Korxona ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi**

Samaradorlik – korxona ishlab chiqarish faoliyatida muhim o'lchov birligidir. Xo'jalik yuritish samaradorligining mezoni va ko'rsatkichlari. Korxonalarning iqtisodiy barqarorligi monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlari, ko'rsatkichlari tizimi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning meyoriy asoslari. Korxona faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari va omillari.

**7-mavzu. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati**

Asosiy fondlarning mohiyati va ularning korxona faoliyatidagi o'rni. Korxonalarda asosiy fondlarning eskirishi, ularni baholash va ta'mirlash. Asosiy fondlarning ta'miri va ularni moliyalashtirishning mohiyati. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlri va ularni yaxshilash yo'llari. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati.

**8-mavzu. Korxonaning aylanma mablag'lari**

Aylanma mablag'lar tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ularning korxona faoliyatidagi ahamiyati. Aylanma mablag'larning tuzilmasi va harakati hamda ularning korxona iqtisodiyotiga ta'siri. Aylanma mablag'larni normalashtirish. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari.

**9-mavzu. Korxonada kadrlar va mehnat haq to'lash**

Korxonaning kadrlar salohiyati. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosati. Korxonada mehnatga haq to'lash. Mehnat haqini ratsional tashkil qilishning tamoyillari va maqsadi.

Tarif tizimining mohiyati va uning tarkibiy elementlari. Tarif-malakaviy ma'lumotnoma, tarif setkasi, tarif stavka tushunchalari, ularning tarkibi va maqsadli ahamiyati. O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladigan yagona tarif setkaning xususiyatlari.

Xodimlar mehnat haqining shakllari (turlari). Vaqtbay va ishbay mehnat haqi, ularning ko'rinishlari, qo'llash shartlari, ish haqi hisobining metodikasi.

Ish haqi fondini aniqlash usullari, uni ishlangan va ishlanmagan vaqtni inobatga olgan holda tarkibi. O'zbekiston Respublikasi mehnat Kodeksi, mehnat motivatsiyasi

**10-mavzu. Korxona rentabelligi, daromad va xarajatlar**

Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish sarflarining iqtisodiy mohiyati. Xarajatlar tushunchasi va klassifikatsiyasi. Korxona xarajatlarining turli tasnifiy jihatlari bo'yicha tasnifi va ularning tarkibi: ishlab chiqarish va nosanoat xarajatlar; to'g'ri va yondosh (kosvennqe) xarajatlar; mahsulot tannarxiga va davr xarajatlariga kiritiladigan sarflar; o'zgaruvchan va o'zgarmas sarf-xarajatlar, ularning korxona foydasiga bo'lgan ta'siri; bezararlik nuqtasi (muvozanat nuqtasi) tushunchasi. Bu nuqtada sarflar umumiy tushum evaziga batamom qoplanadi, uni hisob metodikasi.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan harajatlar tasnifi. Sarf xarajatlarning kalkulyatsion moddalar va iqtisodiy elementlar bo'yicha guruhlanishi. Tannarx strukturasi, uni kamaytirish yo'llari.

Foyda va uning shakllanish manbalari, taqsimlanish tartibi va ko'paytirish yo'llari. Rentabellikning mohiyati va ko'rsatkichlari

**11-mavzu. Korxonaning investitsion faoliyati**

Investitsiyalar korxona ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash vositasi sifatida. Korxonalarda investitsiyalashning asosiy manbalari va yo'nalishlari. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash.

**12-mavzu. Korxonaning tijorat siri va iqtisodiy xavfsizligi**

Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Korxona iqtisodiy havfsizligini ta'minlashni tashkil qilish va boshqarish. Korxonaning xavfsizlik xizmati, uning tuzilishi va vazifalari. Korxonaning tijorat sirlari.

**13-mavzu. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va mazmuni**

Tadbirkorlik to'g'risida tushuncha va uning mohiyati. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy asoslari. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlikni iqtisodiyotda tutgan o'rni.

**14-mavzu. Tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari**

Tadbirkorlik turlari. Ishlab chiqarish tadbirkorligi. Innovatsion tadbirkorlik. Ilmiy texnik tadbirkorlik. Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish boyicha tadbirkorlik. Tijorat tadbirkorligi. Moliyaviy tadbirkorlik. Maslahat tadbirkorligi. Maslahat xizmatlari.

Tadbirkorlik shakllari. Yakka tartibdagi tadbirkorlik. Xususiy tadbirkorlik. Oil tadbirkorlik. Firmalar. Ma'suliyati cheklangan va cheklanmagan jamiyatlar. Aksiyad jamiyati. Korloratsiy. Xolding komlaniy. Davlat korxonalari. Konsern. Konsorsi Koolerativ. Kartel. Sindikat. Venchur korxonalar. Injiniring korxonalar.

**15-mavzu. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish**

Tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi. Tadbirkorlik korxonalari va kichik biznes subyektlarini bank, soliq va moliya muassasalaridan ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur xujjatlar, ularning mazmuni. Kichik biznes subyektlarining bankrotliligi. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini qayta tashkil etish va yopish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalariga litsenziya berish tartibi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalariga litsenziya beruvchi tashkilotlar. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning maqsadi va vazifalari. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari boshqaruvining tashkiliy tuzilmalari. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini boshqarish usullari va qarorlar qabul qilish jarayoni.

**16-mavzu. Tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari**

Infratuzilmaning mohiyati. Tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi turlari. Brokerlik idoralari, ulgurji va chakana savdo tuzilmalari, lizing, konsalting va sug'urta komlaniyalari, bojxona xizmati, axborot - maslaxat markazlari, injinering va auditorlik firmalari.

O'zbekistonning bank-moliya tizimi. Bank-moliya sohasidagi o'zgarishlar. Banklarning asosiy oleratsiyalari. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli. Banklardan kredit berish tartibi.

O'zbekistonda soliq tizimi. Umumdavlat va maxdlliy soliqlar. Soliq yukini kamaytirishga karatilgan soliq siyosati. Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan soliq turlari. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlaridan soliq olish qoidalari va soliq imtiyozlari.

## III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Korxonani tashkil etish va tadbirkorlik" kursining mazmuni va vazifalari
2. Korxona – mustaqil xo'jalik yurituvchi bozor sub'ekti
3. Korxonani tashkil qilish va uning faoliyatini to'xtatish
4. Korxonani boshqarish
5. Korxona faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish
6. Korxona ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi
7. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati
8. Korxonaning aylanma mablag'lari
9. Korxonada kadrlar va mehnat haq to'lash
10. Korxona rentabelligi, daromad va xarajatlar
11. Korxonaning investitsion faoliyati
12. Korxonaning tijorat siri va iqtisodiy xavfsizligi
13. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va mazmuni
14. Tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari
15. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish
16. Tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruxga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

| | |
|---|---|
| 1 | O'zbekistonda korxonalarni tashkil etilishi bo'yicha meyoriy hujjatlarning mazmuni va mohiyati. |
| 2 | "Korxonani tashkil etish va tadbirkorlik" kursining mazmuni va vazifalari |
| 3 | Korxona – mustaqil xo'jalik yurituvchi bozor sub'ekti |
| 4 | Korxonani tashkil qilish va uning faoliyatini to'xtatish |
| 5 | Korxonani boshqarish |
| 6 | Korxona faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish |
| 7 | Korxona ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi |
| 8 | Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati |
| 9 | Korxonaning aylanma mablag'lari |
| 10 | Korxonada kadrlar va mehnat haq to'lash |
| 11 | Korxona rentabelligi, daromad va xarajatlar |
| 12 | Korxonaning investitsion faoliyati |
| 13 | Korxonaning tijorat siri va iqtisodiy xavfsizligi |
| 14 | Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va mazmuni |
| 15 | Tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari |
| 16 | Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish |
| 17 | Tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalari |
| 18 | O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari. |
| 19 | Aholining bandlik muammosini hal etishda tadbirkorlikning tutgan o'rni. |
| 20 | Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish boyicha tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari |
| 21 | Savdo-xarid va savdo-vositachilik kichik biznes va xususiy tadbirkorligini rivojlantirish yunalishlari |
| 22 | Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari |
| 23 | Tadbirkorlik taktikasi va strategiyasi |
| 24 | Tadbirkorlik obyektlari, subyektlari va shakllari |
| 25 | Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash |
| 26 | Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish |
| 27 | Kichik biznes korxonalarini boshqarishni o'ziga xos xususiyatlari |
| 28 | Kichik biznes korxonalarining bankrotliligi va ularni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash |
| 29 | Kichik biznes va tadbirkorlik subektlarida mahsulot tannarxining kamaytirish yullari |
| 30 | Kichik korxonalar va tadbirkorlik subektlari mahsulotiga baho belgilash bosqichlari va usullari |
| 31 | Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlari. |
| 32 | O'zbekistonda tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlari. |

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar tayyorlash va uni himoya qilish tavsiya etiladi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**3.** "Korxonani tashkil etish va tadbirkorlik" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

korxonani tashkil etish va tadbirkorlik, iqtisodiyot va boshqarish nazariyasining paydo bo'lishi, uning konsepsiyalarini; korxonalar to'g'risida tushuncha, tashkil etish yo'llari, tugatish sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalari ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;***

korxonalar faoliyatida tadbirkorlik shakllarini qo'llash, rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish, islohotlar bosqichlarini o'rganish; tadbirkorlikda

tavakkalchilikni qo‘llash va raqobatning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

Iqtisodiyotda joriy etilgan meyoriy hujjatlar, shartnomalar tarkibi va ularning asosiy ko‘rsatkichlarni baholash va tashkiliy tuzilmalarni tahlil qilish; davlat va tadbirkorlik faoliyatining rasmiy va norasmiy meyorlarini shakllantirish bo‘yicha ***ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim;***

korxonalarni tashkil etish, faoliyatini tugatish, samaradorligini oshirish, asosiy va aylanma fondlaridan foydalanish, boshqarishning tashkiliy tarkibi, tuzilishi, boshqarish usullari, shartnoma (kontrakt) tushunchasi va uning asosiy shartlari; bozor, firma va xufyona iqtisodiyotning kelib chiqishi sabablari haqidaaniq ***malakalariga ega bo‘lishi kerak.***

Bundan tashqari talabalar o‘zlarini qiziqtirgan mavzu bo‘yicha tadqiqot savollarini shakllantirishlariga olib keladi.

**4.** **VI. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:**

- ma’ruzalar;
- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
- jarayonli-yo‘naltirilgan ta’lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni yechish.

**5.**

**VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirishi zarur.

**6.**

**ASOSIY ADABIYOTLAR**

1.Ulashev I.O. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. O‘quv qo‘llanma. 232 bet. Tafakkur-Bo‘ston. 2013y
2.Mahmudov E.X. “Korxona iqtisodiyoti” . Darslik 368 bet. Fan va texnologiya. 2013 y
3.Ortiqov A. “Sanoat iqtisodiyoti” Darslik. 405 bet. TDIU, 2004 yil
4.Samadov A.N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. T.: Moliya-iqtisod, 2008.
5. Boltaboyev M.R., Qosimova M.S.Ergashxodjayeva SH.J., G’oyigtnazarov B.K.,Samadov A.N., Xodjayev R.S. Kichik biznes va tadbirokrlik. - T:ADIB NASHRIYOTI, 2011 - 235 b.
6. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjaeva Sh.J. Marketing. -T.: TDIU - 2010.
7. Xodiyev B.Y., Qosimova M.C., Samadov A.H. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2011.

**QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR**

8.SH.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / SH.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
9. Kudratov T. “Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati”. Darslik. 388 bet. 2012 yil
10.Бухалков М.И. Организация производства на предприятиях машиностроения. Учебник. –М.: ИНФРА-М, 2010 г.-511 стр.
11. Волкова О.И., Девяткина О.В. Экономика предприятия. Учебное пособие. – М. – ИНФРА-М. 2008 г. – 601 стр
12. “Mulkchilik to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. O’zbekiston respublikasi: qonunlar va farmonlar. – T., 1992 yil.
13. “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1992 yil.
14. “Tadbirkorlik to’g’risida”gi Uzbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1992 yil.
15. “Ijara to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1998 yil.
16. “Aholini ish bilan ta'minlash to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni.-T.,1998 yil.
17. Грузинов В.П. Экономика предприятия. - .:СОФИТ,1997.
18. Abdukarimov B. va boshqalar. “Korxona iqtisodiyoti”, darslik, Toshkent 2005 yil

**AXBOROT MANBALARI**

19. htpp:// www.gov.uz
20. htpp:// www.stat.uz
21. htpp:// www.edu.uz
22. htpp:// www.tsue.uz
23. http:// www.lex.uz
24. http:// www.soliq.uz
25. http:// www.zivonet.uz

**7** **Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.**

Fanning o‘quv dasturi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi yig‘ilishida (2024 yil ______ №____-son), “Iqtisodiyot” fakulteti uslubiy komissiyasida (2024 yil ______ №_____-son), Institut Uslubiy komissiyasida (2024 yil ______dagi №______-son) hamda Institut Kengashida (2024 yil “___” ____dagi №___-sonli bayon) muhokama qilingan va o‘quv jarayoniga foydalanishga tavsiya etilgan

| | |
|---|---|
| 8 | **Fan / Modul uchun mas'ul**<br>SH.SH.Fayziyeva – "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi<br>G.O.Xo'janova - "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi assistenti |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>**R.X.Ergashev** - - QarMII, "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori.<br>**X.S.Muxitdinov** - QarMII, "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori. |